<i>Ibragimova Shoira Normuminovna</i>	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
<i>Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli.....	743
<i>Usmonova Kamola Erkinovna</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
<i>X. A. Suyunova</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni.....	752
<i>Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna</i>	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
<i>Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li</i>	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	
Innovatsiyalar va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalashni takomillashtirish	784
<i>Usmonova Dilafuz Umirzoqovna</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligi	788
<i>Sharipov Ulug'bek Ibotovich</i>	
Texnologiya fanida raqamli ta'lim resurslari asosida amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish metodikasi	792
<i>X. Ch. Dusyorov, X. A. Qulmamatova, N. O. Shog'darov</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining strategik boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish tendensiyalari	796
<i>Itolmazova Gulzoda Qurbongeldiyevna</i>	
Sinfdan tashqari ishlar orqali boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etish metodikasi	800
<i>Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirishda didaktik o'yinlarning roli	805
<i>Shononova Gulsanam Shavkat qizi</i>	
Masofaviy ta'lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish tajribasi	810
<i>Shukurov Mirshod Karim o'g'li, Sharipov Bahrom Bo'riyevich</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metodlarning sifatli ta'limdagi o'rni	816
<i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	819
<i>Bozozrova Adiba Xudayarovna</i>	
Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni olib borishda psixodiagnostik faoliyatning o'rni	823
<i>Odamova O'g'iljon Kenjayevna</i>	
Pedagogical and Psychological Possibilities of Technological Education in Developing Constructive Thinking in Early School Age	827
<i>Egamova Anbarjon Atanazarovna</i>	
Shaxsda empatiya shakllanishining yosh davrlar bo'yicha psixologik xususiyatlari	832
<i>Kurbanova Zaynab Jurakulovna</i>	
Voleybolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	836
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Samatova Maftuna Sohib qizi</i>	
Oliygoch talabalari o'rtasida basketbol sporti mashg'ulotlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	840
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Husenova Norjona Umid qizi</i>	
Inson shaxsini shakllantirishda jamiyat tarbiyasining ahamiyati	844
<i>Normurodova Munisa Nuriddin qizi</i>	
Ikki tilli nutqda kod almashtirish hodisasining lingvistik, pragmatik va ijtimoiy funksiyalari	847
<i>Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi</i>	
Yosh kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi	850
<i>Nurullayev Abdixoliq Qaxxorovich</i>	



Jismoniy tarbiya murabbiylarining faoliyatini sport klublarida tashkil qilishning integrativ mexanizmlari didaktik-metodik yondashuvlar	853
<i>O'rinov Oblaql Jumayevich</i>	
O'quvchilarning ta'lim olish jarayoniga zamonaviy o'qitish usullarining ta'siri	857
<i>Ochilova Sarvinoz Bozor qizi</i>	
Talabalarga Regbi-7 sport o'yinida himoya va hujum usullari hamda texnologiyalarini takomillashtirish	860
<i>Ramazonova Gulmira G'olib qizi</i>	
Oliy ta'limda siyosiy tafakkurni shakllantirishda sun'iy intellektning pedagogik modeli: nazariya va amaliyot uyg'unligi.....	863
<i>Rasulev Bobirjon Atxamovich</i>	
Boshlang'ich sinflar ta'lim tizimida kommunikativ ta'lim harakatlarini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari	867
<i>Shoira Rahimova Adilbekovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida talabalarining o'quv faoliyatini integrativ mexanizmlar orqali tashkil qilish va rivojlantirish.....	871
<i>Sirojov Otajon Orifjonovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasi	875
<i>Suleymanova Ra'no Dustbekovna, Bekova Nilufar Aliboy qizi</i>	
Nemis tilidan o'zbek tiliga tarjimada yuzaga keladigan lingvistik va kommunikativ qiyinchiliklar.....	881
<i>Turamurodova Sevinch Anvarovna</i>	
Globalashuv jarayonida ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarning estetik madaniyatda ifodalanishi	884
<i>Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna</i>	
Ta'limga kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini olib kirishning dolzarbligi.....	888
<i>Kodirova Kumushoy Farxodjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuvlar asosida ekologik ta'limni tashkil etish texnologiyalari	892
<i>Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona</i>	
История, теоретические основы и современные направления развития вида спорта "кураш"	898
<i>Дустов Дилмурод Каримович</i>	
Совершенствование инновационных технологий через виды спортивной деятельности студентов педагогических высших учебных заведений.....	902
<i>Турдиев Умиджон Камолитдинович</i>	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	906
<i>Суяров Хуршид Бахриддинович</i>	
Oliy o'quv yurtlari talabalari sport faoliyatining turli jihatlarida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish texnologiyalari	910
<i>Turdiyev Umiddjon Kamoliddinovich</i>	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	914
<i>Яхшиева Мехринигор Шавкатовна</i>	
O'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirishning mazmuni (dastur, darsliklar tahlili) va vositalari.....	919
<i>Begmatova Nasiba Safarbayevna</i>	
Innovative Method for the Treatment of Chronic Periodontitis Using the "Geistlich Bio-Oss" Preparation..	923
<i>Pardayev Xurshidjon Uralovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligi.....	926
<i>Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari	931
<i>Tursunoy Yusupova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish.....	936
<i>Zulayxo Nazarova, Musayeva Sayyora Erkaboy</i>	
5-6 sinflarda matematika fanini o'qitishda mrt yondashuvini mblock v.5.4.3 dastur bilan takomillashtirish .	940
<i>Abduqodirova Patmaxon Tursunboevna, Moxinur Ruziyeva Mirzoulug'bek qizi</i>	

Kredit modul tizimida bo'lg'usi o'qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	946
<i>Abdurasulova Shoira Kushakovna, Xaitqulova Gulrux Qaxramon qizi, Abdumo'minova Charos Baxodir qizi</i>	
Maktablarda matematikadan o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.....	950
<i>Absattarova Gulmira</i>	
Pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarning roli va samaradorligi	953
<i>Akromova Nigora Erkinovna</i>	
Harakatga oid masalalarni yechish jarayonida jadvallardan foydalanishning samaradorligi.....	955
<i>Raximova Shoira Adilbekovna, Axmadjonova Lobar Otabek qizi</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlarning ahamiyati	959
<i>Bekniyazova Nursulu</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	962
<i>Egamberdiyeva Yulduzxon Urinbayevna, Tojiboyeva Mo'nisaxon Umidbek qizi</i>	
Pedagogikaning mohiyati, vazifalari va ta'lim-tarbiyadagi zamonaviy yondashuvlar	965
<i>Ergasheva Dilnavoz Baxtiyor qizi</i>	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.....	968
<i>Isayeva Umida Nig'matjanovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va uning pedagogik samaradorligi.....	970
<i>Mirzabaeva Malika</i>	
Bo'lajak energetik muhandislarni tayyorlashda yashil energetika ta'limini rivojlantirish	974
<i>Narimanov Baxodir Absalomovich</i>	
Modern Aspects of Epidemiological Issues in Periodontal Diseases Associated With the Consumption of Groundwater	977
<i>Nematova Farzona, Sankulov Jamshed Obloberdiyevich</i>	
Modern Insights Into the Epidemiology of Periodontal Diseases Linked to Groundwater Consumption.....	981
<i>Nematova Farzona, Sankulov Jamshed Obloberdiyevich</i>	
Falsafa fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalash imkoniyatlari va metodologik asoslari hamda o'ziga xos xususiyatlari.....	983
<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'gli</i>	
Pedagogik oliy ta'lim talabalarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlili.....	986
<i>Shobduraximova Umriniso, Abduqaxxorova Moxinur</i>	
Logopedik mashg'ulotlarni tashkil etishda logopedik o'yinlarning ahamiyati va roli	990
<i>Yuldosheva Dilbarxon Turg'unovna</i>	
Mechanical Destruction of a Dental Implant.....	993
<i>Boyev Zukhriddin, Doniyorov Ortik</i>	
Инновационные подходы к диагностике и лечению кариеса: современные технологии в практике стоматолога.....	997
<i>Шукурова Нодира Тиллаевна, Шукуровпа Наргиза Фуркатовна, Фуркатова Сабрина Фармоновна</i>	
Chet tili fonetik kompetensiyasini shakllantirishda raqamli ta'lim vositalarining innovatsion imkoniyatlari ..	1001
<i>Jabborova Lobarxon Abduqayumovna</i>	
Aqlii texnologiyalar ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning metakompetensiyalarini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari	1007
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Didaktik tizim qonuniyatlariga asoslangan o'qitish metodlari.....	1011
<i>Ergasheva Matluba Burxonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini rivojlantirishda ta'lim jarayonini individuallashtirishning ahamiyati	1015
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	



Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda mdeasavodxonlik muammosining psixologik jihatlari	1019
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga kasbiy-metodik tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	1022
Shanazarov Otabek	

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA KASBIY- METODIK TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Shanazarov Otabek

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik tayyorlash, avvalo, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni sifati tayyorlashga bog'liq. Mutaxassislarining kompetentlik darajasi, kasbiy mahorati hamda pedagogik jarayonlarni to'g'ri va maqsadli boshqara olishi o'quvchi shaxsini shakllantirish muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu esa oliy pedagogik ta'lim tizimi, umuman, ta'lim va kadrlar tayyorlash uchun mas'ul bo'lgan barcha tashkilotlar oldiga bo'lajak pedagoglarning barkamol shaxsni tarbiyalash jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga doir kasbiy tayyorgarligini yanada mukammal tadqiq etishdek dolzarb vazifani qo'yadi.

Kalit so'zlar: pedagogika, pedagogik muammo, ta'lim, kasbiy mahorat, kompetentlik, barkamol shaxs, bo'lajak o'qituvchilar.

Abstract: The pedagogical training of future teachers primarily depends on the quality of training of pedagogical personnel in higher education institutions. The level of competence, professional skills, as well as the ability of specialists to manage pedagogical processes correctly and purposefully determine the success of students' personality development. This places an important task on the entire system of higher pedagogical education, as well as on all organizations responsible for education and personnel training, to further improve the study of issues related to the professional preparation of future teachers for organizing and managing the processes of educating a well-rounded personality.

Key words: pedagogy, pedagogical problem, education, professional skills, competence, well-rounded personality, future teachers.

Аннотация: Педагогическая подготовка будущих учителей, прежде всего, зависит от качества подготовки педагогических кадров в высших учебных заведениях. Уровень компетентности, профессиональных навыков, а также способность специалистов правильно и целенаправленно управлять педагогическими процессами определяют успешность формирования личности учащегося. Это ставит перед всей системой высшего педагогического образования, а также перед всеми организациями, ответственными за образование и подготовку кадров, актуальную задачу дальнейшего углублённого изучения вопросов профессиональной подготовки будущих педагогов к организации и управлению процессами воспитания гармоничной личности.

Ключевые слова: педагогика, педагогическая проблема, образование, профессиональные навыки, компетентность, гармоничная личность, будущие учителя.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, rivojlangan demokratik jamiyatni qurish ta'lim tizimi xodimlari zimmasiga vatanga muhabbat ruhida tarbiyalangan, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish vazifasini qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri – o'sib kelayotgan yosh avlod orasidan iste'dodli, zukko o'quvchilarni saralash, ularni zamonaviy maktablarda boyitilgan, mazmunli dasturlar asosida o'qitish, ularga keng imkoniyatlar yaratib berish hamda xalq xo'jaligining turli sohalari uchun raqobatbardosh, malakali mutaxassislarni yetkazishdir.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimidagi 10000 ga yaqin umumiy o'rta ta'lim muassasalarida matematika fanini zamon talablariga mos ravishda eng samarali metodlar vositasida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish muammolari izchillik bilan hal etilib kelinmoqda. Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim maktablarda matematika fanini amaliy va nazariy jihatdan chuqur o'rganishga ixtisoslashtirilgan laboratoriya xonalari ham tashkil etilgan.



Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish muayyan psixologik qonuniyatlarga asoslanishi zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorlash masalasi O'zbekiston pedagogika fanida dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilgan. Xususan, Imomkulova O.N. tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar tizimli ravishda asoslab berilgan bo'lib, bunda pedagogning kasbiy kompetentligi, metodik bilimlari va amaliy ko'nikmalari uzviy bog'liq holda rivojlantirilishi zarurligi ta'kidlanadi. Muallifning fikricha, pedagogik tayyorgarlik sifati ta'lim jarayonining samaradorligini bevosita belgilaydi.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash muammolari ham alohida ilmiy tadqiq etilgan. Imomkulova O.N. tomonidan olib borilgan izlanishlarda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o'qituvchilarning metodik salohiyatini oshirish mumkinligi asoslangan. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga moslashuvchanligini kuchaytirishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Pedagogik diagnostika va differensial yondashuv masalalari ham muhim ilmiy yo'nalish sifatida yoritilgan. Imomkulova O.N.ning pedagogik diagnostika natijalariga asoslangan tadqiqotlarida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, geometriya kursini differensial o'qitish jarayonida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy ishlarda metodik yondashuvlarning samaradorligi ochib berilgan.

Bundan tashqari, loyihalash metodi, innovatsion texnologiyalar va ilmiy-tadqiqot faoliyatini integratsiyalash orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari ham keng yoritilgan. Mualliflar tomonidan pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalar tayyorgarligini oshirish ta'lim samaradorligining muhim omili sifatida baholanadi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar pedagogik kuzatish, so'rovnoma, suhbat hamda test usullari orqali to'plandi. Kuzatish usuli orqali bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasi amaliy jarayonlarda o'rganildi. So'rovnoma va suhbatlar yordamida ularning kasbiy kompetensiyalari, metodik bilimlari hamda motivatsion holati aniqlashtirildi. Shuningdek, diagnostik testlar orqali nazariy bilim darajasi va amaliy ko'nikmalari baholandi. Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi, ya'ni statistik usullar yordamida natijalar umumlashtirildi hamda taqqoslandi. Tahlil jarayonida o'rtacha ko'rsatkichlar, foizli nisbatlar va dinamik o'zgarishlar aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Psixolog mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari hozirgi kunda 6–16 yosh davridagi o'quvchilarning o'rtacha 13–15 foizi yuqori darajadagi aqliy koeffitsient (IQ)ga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Bizningcha, iqtidor shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, u faqat akademik faoliyat yoki aqliy-nazariy faoliyatda namoyon bo'ladi. Iste'dod esa aqliy-ijodiy faoliyatda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir.

Albatta, bu xususiyatlar har bir insonning faqat o'ziga xos bo'lganligiga va tabiiy shartlanganligiga qaramasdan, alohida e'tibor va ta'lim-tarbiyani talab etadi. Shuning uchun ham iqtidorli, iste'dodli o'quvchilarni tanlab, ularni yanada rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoit hamda intellektual, ijodiy muhit zarur. Chunki har qanday iqtidor va iste'dod faqat o'zi tegishli bo'lgan soha faoliyati jarayonida rivojlanadi va namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, Respublikamizning oliy ta'lim tizimida iqtidorli, iste'dodli o'quvchilar uchun matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar va sinflarning tashkil etilishining maqsadga muvofiqligini e'tirof etgan holda, ularni saralashda muayyan tavsiyalar berish mumkin. Hozirgi kunda amaliyotda ixtisoslashtirilgan maktablarga o'quvchilar asosan yo'nalishi bo'yicha fanlardan imtihon va test topshirish orqali qabul qilinadi.

Bizning fikrimizcha, mazkur maktablarga iqtidorli, iste'dodli o'quvchilarni tanlashda fanlar bo'yicha imtihon emas, balki maxsus psixologik intellekt testlari asosida tanlov o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Iqtidor va iste'dod fanlardan olingan "a'lo" baho bilan emas, balki ko'proq miyada kechadigan aqliy jarayonlarning mahsuldorligi bilan o'lchanadi. Psixologik intellekt testlari o'quvchining u yoki bu fandan bilimini emas, balki umumiy aqliy qobiliyati hamda tanlagan soha bilan shug'ullanish layoqatini aniqlab beradi.

O'quvchi umumiy o'rta ta'lim fani ("umumiy o'rta"ga e'tibor qaratish zarur) bo'yicha imtihonda "besh" baho olsa-yu, shu soha bo'yicha intellektual yoki ijodiy qobiliyati bo'lmasa, uning keyingi faoliyati unumdorligi past bo'ladi. Oxir-oqibatda bunday shaxs tanlagan sohasidan bezibgina qolmay, jamiyat uchun ham foyda keltirmaydi.

Kichik maktab yoshidan boshlab nutq, xotira, mantiqiy tafakkur va psixologik xususiyatlarni o'rganish hamda kuzatish asosida o'quvchilarning matematika faniga nisbatan iqtidor darajasi aniqlanadi.

Matematika aqlni charhlaydigan fan sifatida e'tirof etiladi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, deyarli barcha mamlakatlarda matematika o'quv rejalarida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Matematikani o'rganish uchun o'quv vaqtining deyarli 17 foizi ajratiladi. Matematikaga bo'lgan bunday e'tibor uning zamonaviy jamiyatdagi muhim o'rnini aks ettiradi. Ijtimoiy istiqbollardan kelib chiqilganda, matematika sohasi keng bilimga ega bo'lgan fuqarolarni tayyorlash hamda sanoat, texnologiya va ilm-fan uchun zarur malakali kadrlarni yetishtirishning muhim vositasidir.

Matematikadan sinfdan tashqari ishlarning turli shakllari orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish uchun ularning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish zarur. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilarga ijtimoiy, amaliy va shaxsiy ahamiyatni anglashga yordam berish kerak. Shu bilan birga, o'quvchilarda sinfdan tashqari mashg'ulotlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish muhimdir. Bu esa ularning mavjud resurslardan samarali foydalanishini ta'minlaydi hamda qulay ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari ishlarning xususiyatlari o'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Har bir o'quvchiga individual yondashuv qo'llaniladi, shuningdek, guruhlarning ehtiyojlari ham inobatga olinadi. Mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishlariga mos ravishda tashkil qilinadi va ularning o'z qiziqishlarini namoyon etishlariga imkon yaratiladi.

O'quvchilar bilan o'tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarning quyidagi shakllarini taklif etish mumkin:

- fakultativ kurslar;
- 5–6-sinflarda rivojlantiruvchi soatlar, pedagogik oyliklar yoki to'garaklar;
- ilmiy-tadqiqot ishlari;
- maxsus pedagogik guruhlar;
- yaxlit tarzdagi sinfdan tashqari pedagogik mashg'ulotlar.

To'g'ri yo'lga qo'yilgan va tizimli tashkil etilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchilar tomonidan darslarda egalangan bilimlarni mustahkamlaydi hamda ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

5–6-sinflar uchun matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni oyda 2-marta darsdan keyin o'tkazish mumkin. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilar qiziqish bilan ishtirok etadi, matematika tarixiga oid yangi ma'lumotlarga ega bo'ladi, tez hisoblash usullarini va turli ko'rinishdagi masalalarni yechishni o'rganadi. Natijada ular kelajakda foydali bo'ladigan ko'plab bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

O'quvchilarda mustaqil ravishda masalalarni tanlash ko'nikmalari shakllanadi. Ular topshiriqlarni yechishning yangi usullarini izlaydi va o'zaro almashadi. Shu kabi yondashuv asosida maktablarda matematika oyliklarini tashkil etish mumkin.

Maktabdagi matematika oyligini o'tkazish quyidagi natijalarga olib keladi:

- o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
- sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ijtimoiy, amaliy va shaxsiy ahamiyatini anglashga yordam beradi;
- mashg'ulotlarda ishtirok etishga ijobiy motivatsiyani shakllantiradi;
- resurslardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- qulay ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda faol o'quvchilarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ular olimpiada masalalarini yechishda va yangi g'oyalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

- pedagogik dunyoqarashni kengaytiradi (matematika tarixiga oid bilimlar orqali);
- mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;
- qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi;
- pedagogik modellashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Baholash jarayonida obyektivlikka rioya etilsa, taklif etilgan uslublar yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Yuqoridagi yondashuvlar asosida sinfdan tashqari ishlar qiziqarli tashkil etilsa, bu nafaqat o'quvchilar, balki ota-onalar va maktab jamoasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Natijada o'quvchilarning sinfdan tashqari tadbirlarga qiziqishi ortadi, internet resurslaridan foydalanish, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashga bo'lgan ehtiyoj shakllanadi, intellektual o'yinlar va olimpiadalarda ishtirok etish istagi kuchayadi, tadqiqot faoliyatiga jalb etilish darajasi oshadi, tadbirlarni tashkil etish sifati yaxshilanadi, iste'dodli o'quvchilarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash imkoniyati kengayadi hamda muomala madaniyati rivojlanadi.

O'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematika bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning tabaqalashgan tizimi orqali ularning bilish faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Imomkulova O.N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uslubiy-matematik tayyorgarliklariga qo'yiladigan talablar haqida // "Hozirgi zamon matematikasi va uni o'qitishning dolzarb muammolari" oliy o'quv yurtlararo ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent-2010, 44–46-betlar.
2. Imomkulova O.N. Preparing Future Teachers of Initial Classes in Conditions of Education Informatization // Eastern European Scientific Journal, 4/2018.
3. Imomkulova O.N. Preparation of Future Teachers of Initial Classes in Conditions of Education Informatization // Collected Papers of the XV International Scientific-Practical Conference "Advances in Science and Technology". July 31-2018, pp. 171–174.
4. Imomkulova O.N. Обучение математике несовершеннолетних с учётом результатов педагогической диагностики // "Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni bartaraf etishning ijtimoiy pedagogik va huquqiy asoslari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 24–25-may-2019, Toshkent.
5. Imomkulova O.N. Pedagogika fakultetlarida talabalar metodik-matematik tayyorgarligini oshirish ta'lim samaradorligi kafolatidir // "Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda fizika, matematika va informatika fanlarini o'qitishni takomillashtirish istiqbollari" 6-an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2-qism, Toshkent-2010, 99–102-betlar.
6. Imomkulova O.N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion texnologiyalar asosida matematik tayyorlash muammolari // "Murabbiy mahorati" ilmiy-metodik, ommaviy-ma'rifiy jurnal, №1, 2020-yil.
7. Imomkulova O.N. Метод проектов на уроках математики как одна из эффективных технологий развития детей // "Loyihalashtirish usulidan foydalangan holda o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 16-may-2018, Toshkent.
8. Imomkulova O.N. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligini takomillashtirish // Ilmiy axborotnoma jurnali, №2, 2021-yil.
9. Imomkulova O.N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion texnologiyalar asosida matematik tayyorlash muammolari // Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnali, maxsus son, 2020-yil.
10. Imomkulova O.N., Mardonov E.M., Ostonov K., Achilov Sh. About Some Methodical Features of the Development of Creative Competence in the Process of Differentiated Learning of the Course of Geometry // Solid State Technology, Volume 64, Issue 2, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.